

## EVFEMIZMLARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ruziyeva Nafisa Zarifovna

*Buxoro davlat universiteti*

**Annotatsiya:** *Maqola nutq madaniyatida qo'llaniluvchi so'zlar ya'ni evfemizmlarning kelib chiqishiga nazar va jahon olimlarining evfemizmlar haqida fikr va g'oyalarni tahlil qilish va o'rganishga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *evfemizmlar, tabu, tilshunoslik, trop, muloyim so'zlar.*

Jamiyat va insonlar o'rtasidagi muloqotning asrlar davomida o'zgarib borishi insonlarning o'zaro muloqot qilishi usullari va yo'llarini o'zgarishiga, nutqni go'zallashtirish, yumshatish hodisalariga zarurat sezilib boraveradi. Shu o'rinda biz muloqot vaqtida aytilishi qo'pol bo'lgan so'zlarni o'rnida estetik jihatdan muloyimlashgan so'zlarni ishlatish tushunchasi paydo bo'ldi.

"Evfema" grekcha so'z bo'lib, **eu** "yaxshi", **pheme** "nutq, gapirish" degan ma'noni bildiradi. Tabu va evfema hodisasi tarixiy jarayon bo'lib, u asosan til va tafakkurning paydo bo'lishi bilan bog'liq hisoblanadi. Yillar o'tishi natijasida insonlarning muomala ehtiyoji, notiqlik talabiga ehtiyoj va zarurat tug'ilgani sababli o'z evolyutsion tarixiga ega hodisadir.

Mahalliy va xorijiy tilshunoslikda evfemizmlarni o'rganish tarixini tilshunoslik hali fan sifatida shakllanmagan va "evfemizm" atamasi paydo bo'lmagan davrdan boshlab organilgan desa mubolag'a bo'lmaydi. O'rinsiz, qo'pol so'zni yumshatib, o'rnini bosuvchi ibora orqali ifoda etish allaqachon paydo bo'lgan edi. Bu antik davrlar - notiqlik maktablarining gullagan davriga tog'ri keladi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, semantik doirada tuzilgan so'z va iboralarni yumshatish va bezash haqidagi g'oyalar qadimgi yunon faylasufi Aristotelning eramizdan avvalgi 300 yillardagi "Ritorika" deb nomlanuvchi asarida uchratishimiz mumkin. Ikki asr kechroq hayot kechirgan Rim faylasufi Tsitsironning notiqlik san'ati jahonga mashhur bo'lgan, uning notiqlik san'atidan keltirilgan misollarida ta'sir qiluvchi so'zlarni tanlash bo'yicha maslahatlar, shu jumladan qo'pollikni istisno qiluvchi evfemizmlardan oqilona foydalangan.

Bundan ko'rinib turibdiki nutqni go'zallashtirishga va uni yumshoq, tinglovchi uchun qo'pol bo'lmalik masalalari eramizdan oldingi asrlardan buyon jiddiy e'tibor ostida bo'lgan.

O'rta asrlardan boshlab evfemizmlarni o'rganishda quyidagi uchta guruhga asoslangan:

- a) Xurofot tufayli bir so'zni ikkinchisiga alishtiruvchi so'zlar;
- b) Kamtarlik bilan ifodalanovchi so'zlar;
- c) Etiket qoidalariga zid kelgan so'zlar o'rnida qo'llaniluvchi so'zlar.

Birinchi guruhga tegishli evfemizmlar asosan biror bir shaxsga yoki holatga nisbatan yovuz, g'araz fikrlarni jalb qiluvchi so'zlar o'rnida qollanilgan. Bunday so'zlarga '**o'lmoq**', '**jonini azroilga bermoq**' kabi soz'lar kiradi. Ikkinchi guruhdagi evfemizmlar axloq tomondan

ishlatishga zid bo'lgan so'zlar o'rnida qo'llanilgan. Bunday so'zlar asosan jinsiy yaqinlik yoki kasallikka oid bo'lgan. Asosan ushbu guruh evfemizmlari shaxslararo muloqotda hurmat va nafosat ramzini ko'rsatish uchun qo'llanilgan. Uchinchi guruhdagi evfemizmlar esa XI asrlarda paydo bo'lgan, ularning qo'llanilish sohasi ko'pincha sheriyat (trubadurlar) olamida namoyon bo'ladi.

“Evfemizm” terminining birinchi bor lug'atda biriktirish hodisasi XVII asr o'rtalarida sodir bo'ldi. 1656 yilda Tomas Blauntning “Glossographia: Or, A Dictionary Interpreting All Such Hard Words of Whatsoever Language, Now Used in Our Refined English Tongue” lug'ati nashrdan chiqdi. Unda evfemizm tushunchasi quyidagicha tahlil qilingan: a good or favorable interpretation of a bad word”.<sup>68</sup> Bunda quyidagi izohni to'g'ridan – to'g'ri tarjima qilsak “qo'pol so'zning yaxshi yoki foydali talqini” ma'nosini beradi.

Turli xil nazariy manbalarni o'rgangan holda shuni ta'kidlash joizki, an'anaviy ravishda olimlar evfemizm va tabu bir – biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ikkita hodisa sifatida qarashadi. Aynan shu fikr va g'oya, shu sohaga qiziqqan, evfemizm va tabu munosabatini o'rganishga kirishgan etnograflar Dj. Freyzer, A. Meye, D.K. Zeleninlarning tadqiqotlar olib borishlariga sabab bo'ldi. XX asrlarda tilshunoslar, fransuz tilshunosi J. Vandries, daniyalik tilshunos Kr. Nirop va Y. Otto Yespersen va amerikalik tilshunos olimlar J. M. Stedman va F.N. Skottlar ham tabu va evfemizmlarni bog'liqligini o'rganishga kirishishdi.

G'arbda evfemizmlarni tadqiq etishning muhim omili – amaliy tadqiqotlar hisoblanadi. Bu, asosan, Britaniya va Amerika tilshunosligiga taalluqlidir. Amerikalik mashhur tilshunos olim Ch. Keyni birinchilardan bo'lib evfemizmlarning ikki tilli lug'atini (ingliz va ispan tillari asosida) yaratdi. U “bilvosita nomlash” atamasi orqali evfemizmning til hodisalariga munosabatini ochib berdi.

Britaniya va Amerika lug'at boyligining aksariyat qismini texnik va kasbga oid atamalarga, sleng, jargonizm va vulgarizmlarga boy ekanligini inobatga olib, bu so'zlar katta audirtoriya tomonidan anglay olinmasligini hisobga olgan holda Amerika va Britaniya tilshunoslarining evfemizmlar tadqiqiga bo'lgan e'tiborini yanada oshirdi.

Zamonaviy tilshunoslikning hozirgi bosqichida evfemizmlar nafaqat leksikografiya nuqtai nazaridan balkim, lingvopragmatika yo'nalishida ham chuqur izlanishlar va tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunonchi evfemizmlarni muayyan tematik guruhlariga ajratib o'rganish ham ommalashib bormoqda. Masalan: siyosiy, ijtimoiy, tibbiyot sohasiga oid evfemizmlarni aytib o'tish mumkin.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki XXI asrda ham evfemizm va tabu munosabatini o'rganishga bo'lgan qiziqish hali ham so'ngani yo'q. Rus olimlarining evfemizmlarni tadqiq etishga bo'lgan qiziqishining ilk ishlarini XX asrning o'rtalarida boshlangani 1961 yilda B.A. Larinning “Evfemizmlar haqida” nomli ishida ko'rish mumkin. Lekin bundan bir necha yillar ilgari 1935-1940 yillarda D.N. Ushakov tahriri ostida “Rus tilining izohli lig'ati”da

<sup>68</sup> Blount T. Glossographia: Or, A Dictionary Interpreting All Such Hard Words Of Whatsoever Language, Now Used In Our Refined English Tongue. L.: Tbo, Newcomb, 1656. 677 p

evfemizmlarga bag'ishlangan maqola chop etildi. Unda evfemizmlar quyidagicha tahlil qilingan edi: "Evfemizm" grekcha *euphemeo* – "muloyim gapiraman", (*ling*) – "so'z yoki ibora" manosida keladi. Eng qizig'i shundan iboratki quyidagi izoh hozirgi kunga qadar o'zgarmagan.

B.A. Larinning ishiga qaytsak, shuni takidlash joizki, ishning asosiy maqsadi evfemizmlarni o'rganish muammolari va ularni keyingi tadqiqotlar uchun omil bo'lishiga xizmat qiladigan asosiy dasturiy qoidalarini ta'kidlab o'tish joiz:

- Evfemizm va tabu munosabati, ya'ni bid'atga oid so'zlar o'rnida zamonaviy evfemizmlarni qo'llash;<sup>69</sup>

- Evfemizmlarning qo'llanilish sohalarini aniqlash. Bir tomondan ayrim (jurnalistika, diplomatiya, notiqlik) sohalarda evfemizmlarning majburiy qo'llanilishi, ikkinchi tomondan esa ularning ixtiyoriy qo'llanilishi (hazil va mutoyibalarda);

- Evfemizmlarning mo'rtligi, bunda zamon o'tgan sayin ularning jozibadorligi yuqoladi, shunda ularni yangisi bilan almashtirish zarur;

- Evfemizmlar ilmiy klassifikatsiyad (gap bo'lagi, tarkibi, kelib chiqishi) qat'iy nazar ularning ijtimoiy tabiatiga qarab tasniflash;

- Evfemizm va troplarni (metafora, metonimiya, sinekdoxa) semantik tuzilishiga ko'ra ajratish va ularning funksional jihatlarini ochib berish (troplar harakatning obrazli tasviri uchun qo'llanilsa, evfemizmlar esa nopok hodisalarni va qo'pol sozlarni yumshatish uchun qo'llaniladi)

B. A. Larin tomonidan ilgari surilgan fikrlar rus tilshunoslarining evfemizmlar haqidagi tadqiqotlari uchun ulkan imkoniyatlarni, evfemizmlarni o'rganishning yangi trayektoriyasini, o'zgacha bahs – munozaralarni keltirib chiqardi. Xususan trop va evfemizm o'rtasidagi munosabat haqidagi tezisida B.A. Larin evfemizmlarni quyidagicha ta'riflaydi: "Evfemizm tilni yumshatish va tozalashning bir manbasi".<sup>70</sup>

O'z navbatida N.M. Berdova evfemistik iboralarda perifrasi va trop belgilarining mavjudligini bilvositalik, tavsif va allegoriklikni anglatib, bunda evfemizmlar nafaqat so'zlarni yumshatish balki, bezash funksiyasini ham amalga oshiradi deb ta'kidlagan.<sup>71</sup> XX asr rus tilshunosligida, shuningdek, xorijiy tillarda evfemizmlarning keng talqini ustunlik qildi. Biroq, ilmiy adabiyotlarda evfemizmlarni tushunishning tor yondashuvi ham aniqlangan. "Tor yondashuv" tarafdorlari evfemizmlarga faqat so'zlovchi tomonidan taqiqlangan so'zlar o'rniga ishlatiladigan so'z va iboralarni kiritishadi.

<sup>69</sup> Ларин Б. А. Об эвфемизмах // Проблемы языкознания: сб. ст. / ред. Б. А. Ларин. Л., 1961. С. 101-114.

<sup>70</sup> Москвин В. П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. М.: ЛЕНАНД, 2010. 264 с

<sup>71</sup> Никитина И. Н. Эвфемия в зарубежной и отечественной лингвистике: история вопроса и перспектива исследования [Электронный ресурс]. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/evfemiya-v-zarubezhnoy-i-otechestvennoy-lingvistike-istoriyavoprosa-i-perspektiva-issledovaniya> (дата обращения: 25.09.2017)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak tilning jozibadorligi yillar o'tgan sayin sayqallashib borishiga talab juda kuchli ekan, dunyo tilshunos olimlarining evfemizmlarni tadqiq etish doiralari va yo'nalishlari kundan – kunga oshib boraveradi.

#### REFERENCE:

1. Blount T. Glossographia: Or, A Dictionary Interpreting All Such Hard Words Of Whatsoever Language, Now Used In Our Refined English Tongue. L.: Tbo, Newcomb, 1656. 677 p.

2. Zarifovna, R. N. (2022). Types of euphemisms used in everyday life. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 86–89. Retrieved from <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/52>

3. Zarifovna, R. N. (2022). Types of euphemisms used in everyday life. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 86–89. Retrieved from <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/52>

4. Ларин Б. А. Об эвфемизмах // Проблемы языкознания: сб. ст. / ред. Б. А. Ларин. Л., 1961. С. 101-114.

5. Москвин В. П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. М.: ЛЕНАНД, 2010. 264 с